

O'ZBEKISTONDA JAMOATCHILIK FIKRINI O'RGANISH MEHANIZIMLARI VA AMALIY SOTSIOLOGIK TADQIQOTLARNING ISTIQBOLLARI

Samadova Mohigul Xolmurod qizi

Mohigulsamadova426@gmail.com

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili

va adabiyoti universiteti,

O'zbek tili ta'limi fakulteti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası,

Sotsiologiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistondagi jamoatchilik fikrini o'rganish mehanizimlari va amaliy sotsiologik tadqiqotlarning istiqbollari haqida bayon qilinadi. O'zbekistonda jamoatchilik fikri va jamoatchilik fikri sotsiologiyasiga oid muhim mavzular yoritilib, ilmiy tadqiqotlar qisqacha bayon qilingan. Tadqiqot natijalari, jamoatchilik fikrini davlatning ertangi kuniga qachalik ta'sir qilishi haqida yoritiladi. Jamoatchilik fikri ta'sir qilishi mumkin ommaviy munosabatlar va siyosiy ommaviy axborot vositalari orqali.. Jamoatchilik fikri siyosatga ham ta'sir qiladi. Maqolada jamoatchilik markazlari ham qisqacha yoritilgan va ularning amalga oshirgan tadqiqotlari boyon etilgan. Ulardani bir O'zbekistonda faoliyat yuritib kelayotgan inson markazi yani ijtimoiy fikr markazi hisoblanadi. Bu kabi, markazlar mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy -axloqiy sohalariga oid o'z tadqiqotlarini amalga oshirgaligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlari: jamoatchilik fikri, o'rganish mehanizimlari, amaliy sotsiologiya, sotsiologik tadqiqotlar, jamoatchilik fikrini o'rganish markazlari.

Kirish. Jamoatchilik fikriga axloqiy institutlardan biri, deb ta'rif berish kishini qiziktiradi. U o'tmishda chegarasiz axlokiy xokimiyatga ega bulganligini eslatadi. Bizning davirimizda o'rab turgan voqeylikda jamoatchilik fikrini qabul kilishni axloqiy tomoni yanada yaqqol gavdalangan. Xozirgi paytda, jamoatchilik fikri nazariga tushgan xamma narsa, avvalo, oliy axlokiy mezonlar buyicha o'lchanadi. Birok, nima bulganda xam, jamoatchilik fikri qanday axloqiy faollikka ega bo'lmasin uning tabiatini faqat jamoatchilik ongi shakilanishini axloq bilan bog'lash - uni faqatgina axloqiy o'lcham, faqatgina axloqiy munosabatlar doirasi bilan chegaralab quyish demakdir. Jamoatchilik fikri mavjudligining uzi bunga xech qanday asos bermaydi.. Bu demakki, jamoatchilik fikri zarur bo'lgan jamoatchilik ongining xar qanday shakliga kira oladi, u xox siyosiy, xox iqtisodiy, axloqiy yoki boshqa bo'lmasin. Qator mualliflar jamoatchilik fikri moxiyatini uning ijtimoiy yoki

ommaviy anglashga tegishliligi orqali ifodalamokchi va tavsifini aniqlamokchi bo'ladilar.

B.Grushin, o'zida turli gurux kishilarining sotsial voqelikning voqea va kurinishlariga munosabatlarini aks ettirgan ommaviy ong xolatidir. Masalan, odamlarning xatti-harakatlariga huquqiy baho berish ham siyosiy baho bilan bog'liq. Axloqiy baholash odamlarning xatti-harakatlarini umume'tirof etilgan me'yorlar bilan o'lchaydi. So'nggi yillarda tadqiqotchilar zamonaviy insoniyat ijtimoiy-siyosiy hayotining global muammolarini aks ettiruvchi jahon jamoat fikrining shakllanishi to'g'risida xulosaga kelishdi. Xalqaro fikr jahon hamjamiyatining ijtimoiy-demografik rivojlanishi, dunyoning turli mintaqalarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, terrorizm, ekologiya, globallashuv va hokazolarga oid baholash, fikr va mulohazalarni qamrab oladi. Sotsiologiya aynan o'zining amaliy jihatlari bilan sotsial muammolarni o'rganishda boshqa ijtimoiy fanlardan keskin tarzda farq qiladi. Chunki sotsiologiya amaliy tadqiqotlari yordamida ijtimoiy hayotda kishilarning dunyoqarashlari, diniy va dunyoviy e'tiqodlari va xulq-atvorlari ijtimoiy jarayonlarga qay tarzda ta'sir o'tkazishini konkret faktlar asosida isbotlab beradi.

Jamoatchilik fikrining mohiyat. Birinchidan, bu odamlarning aqliy faoliyati natijasidir, ikkinchidan, jamoatchilik fikrini shakllantirishda jamoat manfaatlari va ehtiyojlari tanlov mezoni bo'lib xizmat qiladi, uchinchidan, odamlarning ommaviy mulohazalari turli darajadagi ob'ektivlikka ega, ba'zida ilmiy asos bo'lmasa, noto'g'ri jamoatchilik fikri paydo bo'ladi, noto'g'ri qarashlar ko'pincha jamoatchilik fikri sifatida taqdim etiladi; to'rtinchidan, jamoatchilik fikri odamlarni amaliy faoliyatga undaydigan kuchdir; beshinchidan, chiziqli bo'lmagan qo'shilish sodir bo'ladigan individual fikrlar qotishmasi. Taraqqiyot jarayonida jamoatchilik fikri paydo bo'lish, shakllanish va faoliyat ko'rsatish bosqichlarini bosib o'tadi. U o'z-o'zidan ham, ongli ravishda ham shakllanishi mumkin. Shakllanishning asosiy usullari taklif, ishontirish, taqliddir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Jamoatchilik fikrining paydo bo'lishi, shakllanishi va faoliyat ko'rsatish bosqichlari. Jamoatchilik fikrini shakllantirishning ikkita asosiy usuli: o'z-o'zidan va ongli. Jamoatchilik fikrini shakllantirish mexanizmi jamoatchilik fikrini shakllantirishning o'ziga xos usuli sifatida, uning jarayonida u ko'plab individual va jamoaviy fikrlardan asta-sekin kristallanadi. Jamoatchilik fikrini shakllantirishning asosiy usullari taklif, ishontirish, taqlid qilish va boshqalar; uni shakllantirishning asosiy vositalari ommaviy axborot vositalari, og'zaki tashviqot va siyosiy tashviqot, shaxslararo muloqot va boshqalar.

“Ijtimoiy fikr” markazi tomonidan Ta'sisshilar kengashi tomonidan har yili ma'qullanadigan sotsiologik tadqiqotlar rejasiga muvofiq sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish tartibini saqlab qolgan holda “Ijtimoiy fikr” markazining rahbar va ilmiy

xodimlariga budget mablag'lari hisobidan fundamental, amaliy tadqiqotlar va innovatsion ishlar ilmiy-texnik dasturlarini amalga oshirishda ishtirok etadigan ilmiy-tadqiqot muassasalarining ilmiy va rahbar xodimlari mehnatiga haq to'lash va ularni moddiy rag'batlantirish miqdorlari va shartlarini, Markazning boshqa xodimlariga esa O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasiga idoraviy mansub muassasalar uchun belgilangan mehnatga haq to'lash va moddiy rag'batlantirish shartlarini tatbiq etadi.

V. Korobeynikov shunday xulosaga keladi: «Jamoatchilik fikri -ijtimoiy ongning shunday kurinishiki, unda ijtimoiy manfaat, qiziqishlarni ko'zlaydigan, voqelikning dolzarb kurinishlarini yaxlit xolda sotsial guruxlar xalq tomonidan baxolanishi aks etadi»

Aristotelning jamoatchilik fikri xakidagi nuqtai nazari demokratik an'analardan xoli emas. U uzining «Siyosat» asarida turli ishlarni muxokama kilganda aloxida kishi mukammallikdan yirokligini tan olar ekan, u ko'pchilikning qobiliyatiga e'tibor beradi, xususan shunday deydi: «musiqiy va nazmiy asarlar xakida birovlar bir tomoni xakida muxokama qilsalar, boshkalar ikkinchi tomoni xakida muloxaza yuritadilar, xamma birgalikda butunlay olib muxokama kiladi». SHuningdek uni boylikka ega bo'lmagan va ajratib turadigan xislatlarga ega bo'lmagan erkin fukarolar ommasi nima ustidan yuqori hokimiyatga ega bo'lishi kerak degan savol xam o'ylantirardi. Bir tomondan bundaylarni yuqori lavozimlarga tayinlash xavfli... ular yo adolatsizlik yoki xatolikka yo'l quyishlari mumkin. Ikkinchi tomonda hokimiyatga aralashishga chetlatish xam xavfli: davlatda ko'p kishilar siyosiy huquqlardan maxrum bo'lsa, qashshoqlar ko'p bo'lsa, bunday davlat, shubxasiz, adavotli kishilar bilan tulib ketgan bo'lar edi deya aytadi .

Jamoatchilik fikri - ijtimoiy voqealarga, turli guruhlar, tashkilotlar va ayrim shaxslar faoliyatiga bo'lgan yashirin yoki oshkora munosabatlarni o'z ichiga oluvchi ommaviy ong shakli bo'lib, ijtimoiy masalalarni ma'qullash yoki qoralashda namoyon bo'ladi, individlar, ijtimoiy guruhlar xatti-harakatini va ijtimoiy munosabatlarda muayyan me'yorlarni belgilaydi

Natija va muhokama. «Ijtimoiy fikr» jamoatchilik fikrini o'rganish markazi — o'zbekiston Respublikasidagi xukumatga qarashli bo'lmagan (nodavlat) ilmiy tadqiqot muassasasi. 1997-yil 25-iyunda tuzilgan. Asosiy vazifalari: inson huquqlari va erkinliklariga rioya qilinishi, siyosiy, huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish muammolari, shuningdek, ijtimoiy munosabatlar rivojining boshqa dolzarb masalalari bo'yicha jamoatchilik fikrini o'rganish; shu borada so'rovlar o'tkazish, so'rov yakunlarini umumlashtirish va taxlil etish. Markaz o'zbek, rus, ingliz tillarida «Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari» jurnalini nashr etadi. Jamoatchilik fikri monitoringini, turli marketing va boshqa amaliy tadqiqotlarni o'tkazish; hukumat va nohukumat tashkilotlari, xalqaro tashkilotlar, o'quv markazlari, ilm-fan vakillari

ishtirokida munozara, davra suhbatlari, anjumanlar o'tkazish va shu kabilar markaz faoliyatining asosiy yo'nalishi hisoblanadi. Markazda sotsiologik tadqiqotlarni rejalashtirish, ekspertiza va taxlil, konkret sotsiologik tadqiqotlarning sotsiologik monitoringi, ishlab chiqarish-texnika, axborot va marketing bo'limlari bor.

Ijtimoiy fikr» markazi telefon va Internet tarmog'i orqali ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy iqtisodiy va mamlakatimiz hayotining boshqa yo'nalishlariga doir dolzarb joriy masalalar yuzasidan aholi o'rtasida so'rovlar o'tkazishni boshlaydi. Bu O'zbekiston prezidentining 2019 yil 22 fevraldagi qarorida ko'zda tutilgan. Jamoatchilik fikri – ommaning, aholi ko'pchilik qatlamining voqea-hodisalarga, ijtimoiy jarayonlarga nisbatan munosabatini ifodalovchi fikrlari, g'oya, qarash va tasavvurlari majmuini ifoda etadigan tushuncha.

Jamoatchilik fikri ijtimoiy hayot ta'sirida stixiyali shakllanib borishi yoki siyosiy tashkilotlar va mafkuraviy muassasalarning omma ongiga ta'sir ko'rsatishi natijasida maqsadga muvofiq o'zgarib borishi mumkin. U ijtimoiy ongning o'ziga xos umumlashgan ifodasi sifatida, alohida fikrlarning o'zaro almashinuvi, boyishi va uyg'unlashib borishi natijasida yuzaga keladi. Jamoatchilik fikri aqliy, hissiy va irodaviy jihatlarni uzviy birlikda ifodalaydi va turli tarzda namoyon bo'ladi. Birinchidan, voqealarga ma'naviy munosabat sifatida. Bunda voqealarni baholovchi fikrlar keng jamoatchilik tomonidan biror-bir tarzda e'tirof etiladi. Ikkinchidan, g'oyaviy-amaliy munosabat sifatida. Unda hissiy va irodaviy istaklar, intilish va niyatlar ommalashadi, jamoatchilikni amaliy faoliyatga undaydi. Uchinchidan, amaliy munosabat sifatida. Bunda kishilar voqea va jarayonlarga bo'lgan munosabatlarini o'z harakatlari bilan namoyon etadilar.

Aql markazlari-faoliyati davomida muhim ijtimoiy-siyosiy masalalar yuzasidan tadqiqot o'tkazish va ekspertlik baholash yordamida takliflar ishlab chiqish bilan shug'ullanuvchi mustaqil tahliliy tashkilotlardir. Bu kabi tahliliy tadqiqot institutlari jamoatchilik fikrini shakllantirgan holda davlat tomonidan islohotlarni ishlab chiqish va amalga oshirish hamda qarorlar qabul qilishga ko'maklashadi. Ayniqsa, rivojlangan mamlakatlar qarorlar qabul qilishda jamoatchilik fikrini inobatga olish, manfaatlar to'qnashuvini oldini olish va ijtimoiy, iqtisodiy hamda siyosiy masalalarda istiqbolni belgilashda mustaqil "aql markazlari"ga murojaat qiladi. Bugungi kunda dunyo bo'ylab turli yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borib, tahliliy ma'lumotlarni ishlab chiquvchi 15 mingga yaqin aql markazlari faoliyat yuritmoqda. Jumladan, O'zbekistonda ham so'nggi yillarda shu kabi tahliliy institutlarga, ularning davlat siyosatini amalga oshirishdagi rolini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Yuksalish" umummilliy harakati tomonidan 2020-yilda mamlakatda faoliyat olib borayotgan "aql markazlari"ning Top-15 taligi e'lon qilingan edi.

2023-yildagi reytingdan esa bu O'zbekistonning 20 ta yetakchi aqil markazlari o'rin oldi. Mazkur reyting O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan tahlil markazlarining rasmiy veb-saytlari, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari, ular tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar va tahliliy maqolalari, xalqaro ilmiy nashrlarda iqtibos keltirilgan tahliliy ishlari va mustaqil ekspertlarning fikri asosida shakllantirildi. Ro'yxatga birinchi marta quydagilar kiritildi: Barqaror rivojlanish markazi; Demokratik jarayonlarni tahlil qilish markazi, "Ijtimoiy fikr" respublika jamoatchilik fikrini o'rganish markazi, Qonunchilik va huquqiy siyosat institute, Markaziy Osiyo xalqaro institute, "Oila va xotin-qizlar" ilmiy tadqiqot institute, O'zbekistonda ochiqlik va shaffoflik tahliliy markazi, Huquqni muhofaza qilish akademiyasi. Bu kabi markazlarning mamlakatimizda tashkil etishi va faoliyat yuritilishi albata quvonarlidir.

Xulosa Xulosa qilib aytadigan bo'lsak jamoatchilik fikrini o'rganish markazlar hozirgi kunda axolini ijtimoiy -siyosiy ,ijtimoiy iqtisodiy ,madaniy rivojlanishi va aholini ijtimoiy fikri haqida axborat bermoqda. Bu kabi markazlar va tadqiqotlar albata o'z samarasini ko'rsatadi. Hozirgi davrda jamoatchilik fikrini tizimli va keng ko'lamda o'rganish dunyoning rivojlangan mamlakatlaridagi ijtimoiy-siyosiy hayotning ajralmas qismiga aylangan. Uning yordamida turli ijtimoiy dasturlar va tadbirlar olib boriladi va samaradorligi aniqlab beriladi. O'zbekistonda "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik fikrini o'rganish markazining o'z faolligi mamlakatimizda bu sohadagi ishlarga katta imkoniyatlar yaratdi deyishimiz mumkun.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikr tarixidan. – T.: Fan, 1995.
2. Sotsiologik tadqiqot metodi va texnikasi. – T.: ToshDU, 1999.
3. Sotsiologiya tarixi. – T.: ToshDU, 1999.
4. Sotsiologiya. Ma'ruzalar matni. (Karimova V. tahriri ostida). – T., 2000.
5. https://yumh.uz/uz/news_detail/615
6. http://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/11/20/NamDU-ARM-14375-Jamoatchilik_fikri_sotsiologiyasi.pdf